



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 5, May, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

The Life And Military Campaigns Of Jaloliddin Manguberdi

Abdurashidov Anvar Abdurashidovich¹

Lecturer, Department of History, Termiz State Pedagogical Institute

Xursandova Sarvigul Norali qizi²

Student, Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: aanvar@gmail.com

Phone number: +998-91-574-48-41

Abstract: This article analyzes the military activities of Jaloliddin Manguberdi and his struggle against the Mongol invasion based on historical sources. The study provides a comparative analysis of works by medieval authors such as Shihab al-Din an-Nasawi, Ata-Malik Juvayni, Ibn al-Athir, and Rashid al-Din Fazlullah, as well as modern historical approaches. It also examines Jaloliddin Manguberdi's military campaigns in the territories of Iran, Azerbaijan, Iraq, Georgia, and India, his strategic and tactical skills, and issues of army command and organization.

Key words: Jaloliddin Manguberdi, Khwarazmshah State, Mongol invasion, military art, strategy, tactics, an-Nasawi, Juvayni, Ibn al-Athir, Rashid al-Din, medieval East, military history, political crisis.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberding harbiy faoliyati va uning mo'g'ullar istilosiga qarshi olib borgan kurashi tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda Shahobiddin an-Nasaviy, Otamalik Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin Fazlulloh kabi o'rta asr mualliflarining asarlari hamda zamonaviy tarixchilarning ilmiy yondashuvlari qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, Jaloliddin Manguberding Eron, Ozarbayjon, Iroq, Gruziya va Hindiston hududlaridagi harbiy yurishlari, uning strategik va taktik mahorati hamda qo'shin boshqaruvi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshohlar davlati, mo'g'ullar istilosi, harbiy san'at, strategiya, taktika, An-Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashididdin, o'rta asr Sharqi, harbiy tarix, siyosiy inqiroz.

KIRISH



Jahonda faoliyat yuritayotgan ko‘plab ilmiy markazlar va tadqiqot muassasalarida Sulton Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullar istilosiga qarshi olib borgan kurashi, uning diplomatik faoliyati hamda sarkardalik mahoratini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, uning harbiy yurishlari, qo‘shin tuzilishi, jangovar boshqaruv tizimi, qo‘llagan strategik va taktik usullari masalalari ham ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda. Tarixiy manbalarning ko‘pligiga qaramay, Jaloliddin Manguberdining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni, ayniqsa harbiy san‘at va harbiy boshqaruv sohasidagi faoliyati hali to‘liq va kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur muammoni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta tahlil qilish bugungi tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin milliy davlatchilik tarixini xolis va haqqoniy o‘rganish, xalq qahramonlari hamda buyuk davlat arboblari merosini tiklash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ana shu jarayonda Jaloliddin Manguberdining tarixiy faoliyatini tadqiq etish va keng targ‘ib qilishga alohida e‘tibor berildi. Xususan, 1999-yilda buyuk sarkardaning 800 yillik yubileyi keng nishonlandi. Keyingi yillarda esa Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdi nomidagi fond tashkil etildi. Prezidentning Xorazmga amalga oshirgan tashriflari davomida ushbu buyuk ajdodning harbiy faoliyati va vatanparvarlik merosini yanada chuqur o‘rganish zarurligi bir necha bor ta‘kidlandi¹. Darhaqiqat, qisqa, ammo mazmunli hayoti davomida Vatanga sadoqat, jasorat va yuksak harbiy iste‘dod namunasini ko‘rsatgan Jaloliddin Manguberdi xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymolardan biridir. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-sentabrdagi Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqidagi qarori, 2000-yil 30-avgustda “Jaloliddin Manguberdi” ordenining ta‘sis etilishi to‘g‘risidagi qonun hamda 2017-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga oid farmonlarda milliy tarixni chuqur o‘rganish va tarixiy merosni asrash masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan. Jaloliddin Manguberdi faoliyatini harbiy-siyosiy nuqtai nazardan tadqiq etish orqali tarixshunoslik rivojiga muayyan hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi haykalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/5473>



Jaloliddin Manguberding hayoti, siyosiy faoliyati va harbiy mahoratini yorituvchi manbalar tarixshunoslikda shartli ravishda ikki bosqichga ajratib o‘rganiladi.

Birinchi bosqich XIII–XVIII asrlarda yaratilgan tarixiy bitiklar.

Ikkinchi bosqich esa XVIII–XIX asrlarda yozilgan ilmiy asar va tadqiqotlarni qamrab oladi.

Dastlabki davr manbalari asosan Sharq tarixchilari tomonidan yozilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi Jaloliddin Manguberdi bilan zamondosh bo‘lgan yoki uning faoliyati haqida bevosita ma’lumotlarga ega kishilar hisoblanadi. Keyingi davrda yaratilgan asarlar esa, asosan, ana shu birlamchi manbalarni tahlil qilish va ilmiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan.

XIII asrning 40-yillaridan XIX asr oxirigacha yaratilgan tarixiy asarlarda xorazmshohlar davlatining harbiy tizimi, qo‘shin tarkibi yoki harbiy lavozimlari haqida to‘liq va tizimli ma’lumotlar uchramasa-da, Jaloliddin Manguberding jangovar faoliyati keng tasvirlangan. Xususan, uning mo‘g‘ullar bilan 1218-yildagi dastlabki to‘qnashuvlaridan boshlab, Arzinjon yaqinidagi janglarda yuz bergan voqealargacha bo‘lgan davr tafsilotlari yoritiladi. Mazkur manbalarda Jaloliddinning mo‘g‘ullar, gruzinlar, Arab xalifaligi, Iroq Ozarbayjoni, Eron hamda Hindiston hududlaridagi raqib kuchlarga qarshi olib borgan harbiy harakatlari haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Mavzuga oid eng muhim va ishonchli birlamchi manbalardan biri “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti”² hisoblanadi. Ushbu asar muallifi Shahobiddin an-Nasaviy Jaloliddin Manguberding kotibi va yaqin safdoshi bo‘lganligi sababli voqealarni bevosita kuzatgan holda yoritadi. Asarda sultonning harbiy yurishlari, mo‘g‘ullarga qarshi janglari, Hindistonga chekinishi hamda Eron va Kavkaz hududlaridagi harbiy harakatlari batafsil bayon qilingan. Ayniqsa, Jaloliddinning shaxsiy jasorati, qo‘shin boshqarish mahorati va jang taktikasi haqida muhim ma’lumotlar berilganligi bilan mazkur asar boshqa manbalardan ajralib turadi.

² Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. / Kamol Matyoqubov tarjimai. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 384 b.



Otamalik Juvayniyning “Tarixi Jahonkusho”³ asari mo‘g‘ullar istilosi davrini o‘rganishda muhim manbalardan biridir. Muallif voqealarni asosan mo‘g‘ullar manfaatlari nuqtai nazaridan yoritgan bo‘lsa-da, Jaloliddin Manguberding harbiy faoliyati, Xorazmshohlar davlatining siyosiy ahvoli hamda mo‘g‘ullarga qarshi kurash tafsilotlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Shuningdek, Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix”⁴ asarida mo‘g‘ullar istilosi musulmon Sharqi uchun katta fojea sifatida baholanadi. Muallif Jaloliddin Manguberдини jasur va qat’iyatli hukmdor sifatida tasvirlaydi hamda uning harbiy yurishlariga keng o‘rin beradi. Rashididdin Fazlullohning “Jome’ ut-tavorix”⁵ asari ham Jaloliddin Manguberdi faoliyatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbada Xorazmshohlar davlati bilan mo‘g‘ullar o‘rtasidagi siyosiy va harbiy munosabatlar keng yoritilgan. Muallif Jaloliddinning harbiy yurishlari, qo‘shin tuzilishi va strategik qarorlariga doir ayrim muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Bundan tashqari, Juzjoniyning “Taboqoti Nosiriy”⁶ asari ham Jaloliddin faoliyati haqida muhim tarixiy dalillarni o‘z ichiga oladi. Temuriylar davri tarixnavisligida ham Jaloliddin Manguberdi siymosiga murojaat qilingan. Xususan, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”⁷ hamda Mirxondning Ravzat us-safo asarlarida Jaloliddin Manguberding siyosiy faoliyati va harbiy kurashlari haqida ma’lumotlar uchraydi. Abulg‘ozi Bahodirxonning Shajarayi turk asarida esa turkiy sulolalar tarixiga oid ma’lumotlar bilan bir qatorda Jaloliddin Manguberdi faoliyati ham qisqacha tilga olinadi.

Kavkaz va arman manbalari ham mavzuni tadqiq etishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Kirakos Gandzaketsining “Armaniston tarixi”, yepiskop Stepanos yilnomalari, Bagrationi Davidning Gruziya tarixiga oid asarlari hamda Kartlis

³ Juwayniy Alauddin Atomalik. Tarixi Jahonkusho (Jahon fотиhi tarixi). / Mas’ul muharrirlar: H. Boltaboev, M. Mahmudov. – Toshkent: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 b.

⁴ Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarikh (To‘liq tarix to‘plami). Tanlangan parchalar. / Arab tilidan tarjima, izoh va sharhlar P.G. Bulgakov. Tarjima, izoh va sharhlarga qo‘shimchalar, kirish va ko‘rsatkichlar Sh.S. Kamoliddin. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 560 s. – 32 s.

⁵ Rashid ad-Din. Solnomalar to‘plami: 3 jildda. / Tarj.: A.K. Arends, Yu.P. Verkhovskiy, O.I. Smirnova, L.A. Khetagurov. Moskva, 2002. Kitob 1–2, 2–3.

⁶ Djuzjani. Tabakat-i Nosiri / Tarj. H.G. Raverty. Kalkutta, 1960. Vol. 1–2; Step’anos episkop. Solnoma // Mo‘g‘ullar haqidagi arman manbalari. XIII–XIV asr qo‘lyozmalaridan parchalar // Tarj.: A.G. Galstyan. Moskva, 1962. – 155 b.

⁷ Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi / Fors tilidan tarjima B. Ahmedov, N. Norqulov va M. Hasaniy. Kirish so‘zi, izohlar muallifi B. Ahmedov. – Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1994. – 224 b.



Tsxovrebada Jaloliddinning Kavkaz hududidagi harbiy yurishlari, gruzin qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglari va siyosiy munosabatlari haqida muhim ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu manbalar voqealarga mahalliy xalqlar nuqtai nazaridan yondashgani bilan ahamiyatlidir.

XIX–XX asrlarda esa Jaloliddin Manguberdi faoliyatini ilmiy asosda tadqiq qilish rivojlandi. Vasily Bartold, Lev Gumilyov, Rene Grousset, Henry Howorth kabi tadqiqotchilar mo‘g‘ullar istilosi va Xorazmshohlar davlati tarixini o‘rganish jarayonida Jaloliddin Manguberding harbiy-siyosiy faoliyatiga alohida e‘tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashi, strategik qarorlari va harbiy san‘ati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ayniqsa, Bartoldning tadqiqotlari Xorazmshohlar davlati tarixini kompleks o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jaloliddin Manguberdi hayoti va harbiy yurishlariga oid tarixshunoslik Sharq, arman, gruzin hamda Yevropa tarixnavisligi an‘analari asosida shakllangan bo‘lib, mazkur manbalar sarkardaning harbiy san‘ati va davlat boshqaruvidagi faoliyatini ilmiy jihatdan yoritishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston tarixchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik tarixini xolisona tadqiq etish imkoniyatlarining kengayishi natijasida xorazmshohlar davlati va Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlar, monografiyalar va maqolalar chop etildi. Mazkur tadqiqotlarda sultonning siyosiy faoliyati, mo‘g‘ullarga qarshi kurashi, diplomatik munosabatlari hamda tarixiy merosi keng yoritilgan.

Xususan, N.Toshev, I.Jabborov, F.Hasanov, J.Raximov, H.Nurmuamedov, X.V.Dadaboev, Azamat Ziyov, S.Saburova, Sh.Saidov, H.Sodiqov, A.Sotliqov, O.Masharipov, Q.Masharipov hamda B.Abdirimovlarning ilmiy ishlarida xorazmshohlar davlati tarixi va Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga oid muhim masalalar tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda sultonning davlat boshqaruvidagi o‘rni, mo‘g‘ullarga qarshi kurashdagi jasorati, tarixiy shaxs sifatidagi fazilatlari hamda o‘zbek davlatchiligi tarixidagi mavqei yoritib berilgan.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Jaloliddin Manguberding harbiy san‘ati, xususan uning jang olib borish usullari, strategik



qarorlari, qo‘shin boshqaruvi va taktik mahorati alohida kompleks ilmiy muammo sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan. Aksariyat ishlarda uning harbiy faoliyati umumiy tarixiy voqealar doirasida bayon etilgan bo‘lib, sarkardaning harbiy strategiyasi va jangovar tajribasiga chuqur harbiy-tarixiy yondashuv asosida baho berilmagan. Shu jihatdan, Jaloliddin Manguberding harbiy yurishlari va harbiy san‘atini maxsus tadqiq etish tarixshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Jaloliddin Manguberding 1216–1221-yillardagi faoliyati uning harbiy sarkarda sifatida shakllanish davri hisoblanadi. Aynan shu yillarda u jangovar tajriba orttirib, kelgusida mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borgan yirik lashkarboshi sifatida tanildi. Tadqiqotlarda Jaloliddinning dastlabki janglardagi ishtiroki, xususan 1216-yilda Irgiz daryosi bo‘yida mo‘g‘ullar bilan yuz bergan ilk to‘qnashuvdagi faoliyati yozma manbalar, arxeologik ma‘lumotlar hamda ilmiy adabiyotlarda mavjud qarashlar asosida tahlil etiladi. Mazkur jang Jaloliddinning harbiy iste‘dodi va sarkardalik qobiliyati ilk bor namoyon bo‘lgan voqealardan biri sifatida baholanadi.

Tarixiy manbalarda ushbu jang Muhammad Xorazmshohning To‘rg‘ay tekisligi yoki Irgiz daryosi bo‘yidagi harbiy yurishi bilan bog‘liq holda tilga olinadi. Ayniqsa, Jaloliddinning jangdagi faolligi va jasorati keyingi harbiy faoliyatining muhim boshlanish nuqtasi sifatida e‘tirof etiladi. Biroq jang tafsilotlari barcha manbalarda bir xil darajada yoritilmagan. Masalan, Shahobiddin an-Nasaviy, Otamalik Juvayniy hamda Ibn al-Asir asarlarida jangning aniq borishi, qo‘llangan jang usullari yoki qurol-aslahalar haqida batafsil ma‘lumot uchramaydi.

Shunga qaramasdan, Rashididdin Fazlullohning Jome‘ ut-tavorix asarida Jaloliddin Manguberding ushbu jangdagi jasorati alohida qayd etiladi. Muallif uni yosh bo‘lishiga qaramay, jang maydonida katta matonat va harbiy mahorat ko‘rsatgan sarkarda sifatida tasvirlaydi. Mazkur ma‘lumotlar Jaloliddinning harbiy faoliyati tasodifiy emasligi, balki uning yoshlik davridayoq jangovar tayyorgarlik va qo‘mondonlik qobiliyatiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Manbalarda jang tafsilotlari to‘liq saqlanmagan bo‘lsa-da, mavjud ma‘lumotlar asosida ikki tomon qo‘llagan harbiy usullar haqida ayrim xulosalar



chiqarish mumkin. Xususan, mo‘g‘ullar tomonidan tezkor otliq qo‘shin taktikasi, kutilmagan hujum va harakatchan jang usullari qo‘llangan bo‘lsa, xorazmshoh qo‘shinlari an’anaviy saf tortib jang qilish uslubidan foydalangan. Shu jihatdan Irgiz daryosi bo‘yidagi to‘qnashuv Jaloliddin Manguberding mo‘g‘ul harbiy san’ati bilan ilk bor bevosita to‘qnashgan va kelgusidagi harbiy faoliyati uchun muhim tajriba vazifasini o‘tagan janglardan biri hisoblanadi.

1224–1230-yillarda Jaloliddin Manguberdi Yaqin Sharq va Kavkaz hududlarida faol harbiy yurishlar olib bordi. Bu davrda u Bag‘dod xalifaligi, Gruziya va boshqa hududiy hukmdorlar bilan murakkab siyosiy va harbiy munosabatlarga kirishdi. Bag‘dod xalifasi unga qarshi bir necha bor qo‘shin yuborgan bo‘lsa-da, Jaloliddin bu hujumlarni muvaffaqiyatli qaytardi. Manbalarda qayd etilishicha, u ushbu janglarda mo‘g‘ullarga xos jang usullaridan, jumladan, yolg‘ondakam chekinish, yashirin pistirma va dushmani chalg‘itish taktikasidan keng foydalangan. Hatto ayrim hollarda askarlariga mo‘g‘ul kiyimlarini kiydirib jangga kiritgani haqida ma‘lumotlar uchraydi. Bu holat Jaloliddinning raqib harbiy tajribasini chuqur o‘rganganligini va uni amaliyotda qo‘llay olganini ko‘rsatadi⁸.

Jaloliddin Manguberding Gruziyaga qarshi olib borgan yurishlari uning harbiy faoliyatida alohida o‘rin tutadi. XIII asrning 20-yillarida Gruziya Kavkazdagi eng kuchli davlatlardan biri bo‘lib, musulmon hududlariga muntazam bosqinchilik yurishlari uyushtirib turgan edi. Manbalarda Jaloliddinning Gruziyaga yurishlari aynan ushbu tahdidga qarshi qaratilgani ta’kidlanadi. 1225-yilda u Dvin shahrini egallab, Garni yonidagi jangda gruzin qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratdi. Ushbu g‘alabadan keyin Gruziya malikasi Rusudanga ittifoq taklifi bilan elchilar yuborilgan bo‘lsa-da, bu taklif rad etilgan. Natijada Jaloliddin 1226-yilda Lori, Aliobod va Tiflis shaharlarini egallab, o‘z nomidan tangalar zarb qildirgan.

Shu davrda Jaloliddinning ichki va tashqi siyosiy muammolari ham kuchayib bordi. Kermondagi noibi Baroq Hojibning mustaqillikka intilishi, Jazira hukmdori al-Malik al-Ashrafning dushmanona harakatlari hamda Hilot atrofidagi mojarolar sultonning siyosiy mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay,

⁸ Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. / Kamol Matyoqubov tarjimai. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 33 b.



Jaloliddin Ani, Kars, Kemah va Arzinjon kabi muhim strategik hududlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. 1227-yilda Isfahon yaqinida mo'g'ullar ustidan qozonilgan g'alaba esa uning harbiy iste'dodi hali ham yuqori darajada ekanligini namoyish etdi.

Biroq keyingi yillarda Jaloliddinning Kichik Osiyo va Suriya hukmdorlari bilan munosabatlari keskinlashib bordi. Tadqiqotchilar uning Alouddin Qayqubod va Damashq hukmdorlari bilan mustahkam ittifoq tuza olmaganini katta siyosiy xato sifatida baholaydilar. Natijada Qo'niyo, Damashq, Hilot, Xalab va boshqa hukmdorlar ittifoq tuzib, Jaloliddinga qarshi harbiy harakat boshladilar. 1230-yilda Yassi Chaman va Arzinjon yaqinida bo'lib o'tgan janglarda Jaloliddin qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Bu mag'lubiyat xorazmshohlar davlatini qayta tiklash yo'lidagi harakatlarga jiddiy zarba berdi.

Ayni vaqtda sharqdan mo'g'ullar bosqinining yana kuchaygani haqidagi xabarlar vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Jaloliddin sobiq raqiblari bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi va Hilot hududlarini qaytarib berdi. Biroq bu paytda mo'g'ullar bilan aloqaga kirgan ayrim siyosiy kuchlar Jaloliddinning zaiflashganidan foydalanishga harakat qildilar. Natijada 1231-yil avgust oyida Amid shahri yaqinida mo'g'ullar tomonidan hujum uyushtirildi. Mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin tog'larga chekinishga majbur bo'ldi va oradan ko'p o'tmay kurdlar tomonidan fojiali tarzda o'ldirildi⁹.

Shunday qilib, Jaloliddin Manguberding Hindiston, Eron, Ozarbayjon va Kavkaz hududlaridagi harbiy faoliyati uning nafaqat jasur sarkarda, balki murakkab siyosiy vaziyatda harakat qila olgan tajribali harbiy strateg ekanligini ko'rsatadi. Uning qo'llagan jang usullari va taktikasi o'rta asr Sharq harbiy san'ati rivojida muhim o'rin tutadi.

XULOSA

Jaloliddin Manguberding harbiy faoliyati va sarkardalik mahorati o'rta asr Sharq tarixida alohida o'rin tutadi. U mo'g'ullar istilosi davrida nafaqat xorazmshohlar davlatining so'nggi yirik hukmdori, balki bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan eng iste'dodli sarkardalardan biri sifatida tarixda qoldi. Yozma manbalar tahlili Jaloliddin Manguberding harbiy san'ati turli tarixchilar

⁹ Toshev N. Jaloliddin Manguberdi o'z davri yozma manbalarida // O'zbekiston tarixi jurnali, 1-son. – T.: FAN, 1999. – B. 54.



tomonidan turlicha baholanganini ko'rsatadi. Ayrim mualliflar uning faoliyatini tanqidiy ruhda yoritgan bo'lsalar, boshqalari uning jasorati, strategik tafakkuri va harbiy mahoratini xolisona baholashga harakat qilganlar.

Tadqiqot davomida Jaloliddin Manguberdining harbiy san'ati tarixshunoslikda yetarlicha chuqur o'rganilmaganligi aniqlandi. Ayniqsa, uning qo'shin tuzilishi, jang olib borish usullari, strategik qarorlari va mo'g'ullar harbiy tajribasidan foydalanish masalalari maxsus ilmiy tahlilni talab qiladi. Shu jihatdan, Jaloliddin shaxsini to'laqonli yoritishda uning harbiy faoliyatini keng qamrovda o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chingizxon istilosi arafasida xorazmshohlar davlati chuqur siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz holatiga tushib qolgan edi. Ichki nizolar, etnik qarama-qarshiliklar va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi davlat mudofaa salohiyatiga jiddiy zarar yetkazdi. Mazkur omillar keyinchalik Jaloliddin Manguberdining faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, uning qo'shini turli etnik guruhlardan tashkil topgan, tartib-intizomi sust va yollanma xususiyatga ega bo'lgani sababli mo'g'ullarning yaxshi tashkil etilgan muntazam qo'shiniga qarshi uzoq muddat samarali qarshilik ko'rsata olmadi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, Jaloliddin Manguberdining mag'lubiyatini faqat uning siyosiy yoki harbiy faoliyati bilan izohlash to'g'ri emas. Bu jarayonda mo'g'ullar armiyasining yuqori darajadagi harbiy tashkiloti, qat'iy intizomi, tezkor harakatlanish imkoniyati va ilg'or jang taktikalari hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Chingizxon qo'shinining harbiy ustunligi nafaqat xorazmshohlar davlatining qulashiga, balki mo'g'ullar imperiyasining jahon miqyosida yirik davlatga aylanishiga ham xizmat qilgan.

Jaloliddin Manguberdining harbiy faoliyati geografik jihatdan keng hududlarni qamrab olgan bo'lib, uning jangovar tajribasi faoliyatining turli bosqichlarida takomillashib borgan. Xususan, Hindiston, Ozarbayjon, Gruziya va Yaqin Sharq hududlaridagi janglarda u mo'g'ullarga xos tezkor hujum, yolg'ondakam chekinish va pistirma taktikasidan samarali foydalangan. Bu esa uning harbiy san'ati moslashuvchan va zamonaviy jang usullariga boy bo'lganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Jaloliddin Manguberdi o'z davrining buyuk sarkardalaridan biri bo'lib, uning harbiy san'ati o'rta asr Sharq harbiy



tafakkurining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashi xalq ozodligi va mustaqilligi yo‘lidagi fidoyilik timsoli sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli Jaloliddin Manguberdi hayoti, siyosiy faoliyati va harbiy san‘atini chuqur o‘rganish bugungi tarixshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi haykalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/5473>
2. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. / Kamol Matyoqubov tarjimasini. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 384 b.
3. Juwayniy Alauddin Atomalik. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotihi tarixi). / Mas’ul muharrirlar: H. Boltaboev, M. Mahmudov. – Toshkent: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 b.
4. Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarikh (To‘liq tarix to‘plami). Tanlangan parchalar. / Arab tilidan tarjima, izoh va sharhlar P.G. Bulgakov. Tarjima, izoh va sharhlarga qo‘shimchalar, kirish va ko‘rsatkichlar Sh.S. Kamoliddin. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 560 s. – 32 s.
5. Rashid ad-Din. Solnomalar to‘plami: 3 jildda. / Tarj.: A.K. Arends, Yu.P. Verkhovskiy, O.I. Smirnova, L.A. Khetagurov. Moskva, 2002. Kitob 1–2, 2–3.
6. Djuzjani. Tabakat-i Nosiri / Tarj. H.G. Raverty. Kalkutta, 1960. Vol. 1–2; Step‘anos episkop. Solnoma // Mo‘g‘ullar haqidagi arman manbalari. XIII–XIV asr qo‘lyozmalaridan parchalar // Tarj.: A.G. Galstyan. Moskva, 1962. – 155 b.
7. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi / Fors tilidan tarjima B. Ahmedov, N. Norqulov va M. Hasaniy. Kirish so‘zi, izohlar muallifi B. Ahmedov. – Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1994. – 224 b.
8. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. / Kamol Matyoqubov tarjimasini. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 33 b.



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 5, May, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

9. Toshev N. Jaloliddin Manguberdi o‘z davri yozma manbalarida // O‘zbekiston tarixi jurnali, 1-son. – T.: FAN, 1999. – B. 54.